



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKUL'TETI

INGLIZ TILI VA LEKSIKA-STILISTIKA KAFEDRASI

**Imindjanova Dilnoza
Olimovnaning**

**5220100-filologiya (ingliz tili) ta'lim yo'nalishi
bo'yicha**

bakalavr darajasini olish uchun

**«Volter Skotning hayoti va adabiy
merosining o'rganilishi» mavzusidagi**

**BITIRUV
MALAKAVIY
ISHI**

Ilmiy rahbar:

S. Daminjanov, katta o'qituvchi i

Ilmiy maslahatchi:

Yo. Nazarova, katta o'qituvchi

NAMANGAN – 2012

VOLTER SKOTNING HAYOTI VA ADABIY MEROSINING

O'RGANILISHI

REJA:

KIRISH	2
I BOB. ROMANTIZM DAVRI INGLIZ ADABIYOTI	8
I. 1. ROMANTIZM DAVRI INGLIZ ADABIYOTINING O'ZIGA XOS TOMONLARI (IJTIMOIY-SIYOSIY VAZIYAT).....	8
I. 2. INGLIZ ROMANTIZMIDA ROMANCHILIK.....	21
II BOB. SKOT TARIXIY ROMAN ASOSCHISI SIFATIDA ..	23
II. 1. V. SKOT HAYOTI VA ADABIY FAOLIYATI. TARIXIY ROMAN YOZISH SAN'ATI.....	23
II.2. V. SKOT ASARLARIDA VATANPARVARLIK MOTIVLARINING AKS ETTIRILISHI.....	28
III BOB. V.SKOTNING ADABIY MEROSI XAQIDA	34
III.1 V.SKOTNING "AYVENGO" ASARI TAHLILI.....	34
III.2 V. SKOTNING ASARLARIDAN FOYDALANISH VA TARJIMA QILISH XUSUSIDA.....	40
XULOSA	43
SUMMARY	52
FOYDALANGAN ADABIYOTLAR ROYHATI	58

KIRISH

O`zbekistonda uzluksiz ta`lim sohasida olib borilayotgan islohotlar natijalari, erishilgan yutuqlar, yuksak salohiyatli avlodni tayyorlashda davlatning rolini xalqaro jamoatchilikka keng ma`lum qilish maqsadida O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan 2012 yil 16—17 fevral kunlari “Bilimli va aql-zakovatli avlodni tayyorlash—mamlakatni barqaror rivojlantirish va modernizatsiyalashning muhim sharti” mavzusidagi xalqaro Konferentsiya o`tkazildi.

Konferentsiyada 1000ga yaqin odam ishtirok etib, shundan 300 dan ortig`i - 49 xorijiy davlatlarning va 9 xalqaro tashkilotlarning, ta`lim va ilmiy muassasalarning, olimlar va ta`lim, fan, madaniyat sohasining vakillaridir.

Konferentsiya doirasida qatnashchilar umumta`lim maktablari, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar, oliy ta`lim muassasalari faoliyati bilan tanishdilar, shu bilan birga, ta`lim sohasidagi islohotlar va islohot natijalarini ta`lim sohasiga tadbiiq etishga bag`ishlangan ko`rgazmani borib ko`rdilar. Konferentsiya ishtirokchilarini O`zbekistonning boy tarixi, san`ati va madaniy yodgorliklari bilan tanishtirish maqsadida qadimiy shaharlarimiz Samarqand, Buxoro va Xivaga tashrifi rejalashtirilgan¹.

Konferentsiya ochilishida O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ishtirok etib, nutq so`zlad.

Forum olti sho`bada ish olib bordi.

1. Maktab ta`limi – intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash asosi.
2. Kasbiy ta`lim va hozirgi mehnat bozorini shakllantirish.
3. Oliy ta`limni rivojlantirish ustivorliklari va mamlakatni modernizatsiyalashda uning roli.
4. Ta`lim jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.
5. Ta`lim va fan – uzluksiz aloqa.
6. Ta`lim va madaniy taraqqiyoti.

Mazkur konferentsiya O`zbekiston Respublikasining “Ta`lim to`g`risida” va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to`g`risida”gi qonunlarining amalga tadbiiq qilinishi, O`zbekistondagi uzluksiz ta`lim tizimida shakllangan yo`nalishlarni aniqlash va yaqin kelajakda hal qilinishi zarur bo`lgan masalalarni belgilash, ta`lim shakli va mazmunini takomillashtirish, kadrlar tayyorlash sifatini oshirish bo`yicha hamda shu sohadagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirish borasida o`zaro tajriba almashish va kelishilgan tavsiyalarni ishlab chiqish imkoniyatini berdi.

Mustaqillik yillarida O`zbekiston ta`lim tizimida ulkan tarkibiy, tashkiliy va mazmuniy o`zgarishlar ro`y berdi. Eng asosiysi, u chindan ham zamonaviy talablarga javob beradigan “ta`lim - butun hayot davomida” paradigmasiga muvofiq uzluksizlik va izchilik kasb etdi.

O`zbekistonning ta`lim muassasalari mamlakatda amalga oshirilgan demokratik va bozor munosabatlari jarayoniga mustahkam bog`lanib, xalqaro ta`lim hamjamiyati bilan astoydil yaqinlashmoqda. Bu muassasalar, xuddi oynaday, O`zbekistondagi hamma ijobiy o`zgarishlarni aks ettirmoqda. Shu bilan birga, qiynichiliklarni ham boshdan kechirmoqda, ammo kelgusida davlat va jamiyat oldida paydo bo`ladigan muammolarni bartaraf qilib, hal qilmoqda.

O`zbekistondagi bugungi uzluksiz ta`lim tizimi - bu turli xildagi ta`lim muassasalari majmui - zamonaviy o`quv binolari, ilmiy laboratoriya qurilmalari, ijtimoiy-madaniy, jismoniy tarbiya va sport infratuzilmasidan iboratdir.

O`zbekistondagi kasbiy ta`lim tizimi butun jahon tamoyillari va Respublikada ishlab chiqarilgan yangi ta`lim standartlariga muvofiq o`rta maxsus, kasb-hunar, ikki bosqichli oliy ta`lim, izchil malaka oshirish tizimida kadrlarni uzluksiz tayyorlashga o`tgan.

Hozirgi paytda mamlakatda 9900ga yaqin maktab, 6000dan ortiq maktabgacha va maktabdan tashqari ta`lim muassasalari, 1537ta kasb-hunar kollejlari va akademik litseylari faoliyat yuritmoqda, 59ta oliy ta`lim muassasasi, 11ta Respublika markaziy oliy o`quv yurtlarining viloyatlardagi filiallari, 6ta yetakchi xorijiy oliy o`quv yurtlari filiallari magistratura mutaxassisliklari va bakalavriatning muhim yo`nalishlari bo`yicha kasbiy-ta`limiy dasturlarni amalga oshirmoqda. Alohida ta`kidlash kerakki, mustaqillik yillari davomida oliy ta`lim muassasalari soni ikki barobarga oshdi.

¹ Karimov I.A. “Bilimli va aql-zakovatli avlodni tayyorlash—mamlakatni barqaror rivojlantirish va modernizatsiyalashning muhim sharti” mavzusidagi 2012 yil 16—17 fevral kunlari xalqaro konferentsiyada so`zlagan nutqi

Respublikada kasbiy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari talabga muvofiqlashtirib borilmoqda. Bozor iqtisodiyoti talab etayotgan yangi, kamyob yo'nalishlar - muhandislik, axborot texnologiyalari, agrar soha, qurilish va arxitektura, geologiya, neft va gaz sohasi bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yilmoqda.

Hozirgi bosqichdagi ta'lim islohotlari yangi vazifalarni qo'ymoqda, global voqelik, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, axborot texnologiyalari va "bilimlar iqtisodi"ning o'ziga xos xususiyatlari, ishlab chiqarish kuchlarini modernizatsiyalash, davlat va jamiyatning olg'a siljishi yuzaga keltirgan yangi ustivorliklarni ilgari surmoqda.

Shunga ko'ra, O'zbekistondagi zamonaviy ta'lim tizimining mazmun va mohiyati insoniyat tomonidan to'plangan g'oyalar, tushunchalar va tajribani o'zlashtirishga qaratilibgina qolmay, balki har bir shaxsning intellektual ijodiy qobiliyati, aqliy va amaliy kasb faoliyatidagi hamda olingan axborot bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Ular jahon standartlari darajasidagi ishlab chiqarish va texnologik jarayonlarda erkin ishtirok eta olishi, zamonaviy qurilmalar va malakali xodimlarning samarali ishlashini ta'minlashga qodir bo'lishi kerak. Bunda davlat ta'lim standartlariga muvofiq bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq bundan tashqari, o'quvchi mustaqil fikrga ega bo'lishi, olingan bilimlarni amaliyotda qo'llay olishi, zarur kasbiy va tashkilotchilik xususiyatlarini o'zida kasb etishi zarur. Zero, zamon ishlab chiqarish va texnologik jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda aniq ish joylari uchun yuqori kasbiy mahoratga ega kadrlarni tayyorlashni taqozo etadi.

Fikrimizcha xorijiy tilni puxta o'zlashtirish, tili o'rganilayotgan mamlakat tarixi va buguni, ijtimoiy – iqtisodiy va siyosiy ahvoli, urf odati madaniyati va sa'atini o'rganishni taqozo etadi. Ana shunday omillardan biri bu adabiyotdir. Adbiy asarlarda til materiali bilan bir qatorda biz yuqorida sanab o'tgan qadriyatlar ham o'z aksini topadi.

Xususan ingliz adabiyoti va uning rivojlanish bosqichlarini o'rganar ekanmiz bevosita Buyuk Britaniya tarixi, rivojlanishining ma'lum bosqichlaridagi ijtimoiy voqelik va til xolatlari xaqida beqiyos axborot olishimiz mumkin. Anglo – Saksonlar Britaniya orollarini egallab olgandan boshlab to bugunga qadar bo'lgan adbiyotni biz ingliz adabiyoti deb ataymiz. Ma'lumki ingliz adabiyoti buyuk va murakkab rivojlanish tarixiga ega. Unda biz ilk davr, o'rta asrlar, uyg'onish davri, ma'rifatchilik davri, romantizm kabi bir necha davrlarni kuzatishimiz mumkin.

Mazkur bitiruv malakaviy ishimizda biz mana shu rivojlanish bosqichlarining Britaniya va dunyo tarixida muhim o'rin egallaydigan romantizm davri va uning yetakchi vakillaridan bo'lmish Valter Skot hayoti va ijodiga bag'ishlaganmiz. Skotning kuchli shaxsiyati uning asarlari, fikrlarining teranligi va tushunarligi, nafaqat adabiyotchi olimlar balki tilshunolar, tarixchilar, kabi boshqa soxa mutaxasislarning ham alohida e'tiborga molik bo'lib kelmoqda. Shuning uchun ham ushbu inson va uning tarixda va adabiyot rivojida tutgan o'rni jahonning turli tillariga chop etilgan asarlarda o'z ifodasini topdi. Shunday asarlar hali hanuz chop etilishi davom etmoqda va bu ishlar o'z poyoniga yetganicha yo'q.

Mazkur bitiruv **malaka**iy ishning **dolzarbigi** buyuk adib Valter Skotning ingliz tilida yaratgan buyuk asarlari va ularda aks etgan vatanparvarlik mavzusini tahlil qilishga qaratilganligidadir.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi.

Shu kungacha Skot ijodiyoti bir necha bor turli tadqiqotlar ob'ekti bo'ldi, ko'plab tillarga tarjima qilindi, lekin ana shu ishlar jarayoni va asarning badiiy va lisoniy jixatlariga ulardagi vatanparvarlik g'oyasini berish vositalari ilmiy nuqtai nazardan jiddiy o'rganilmagan. Mazkur masala yuzasidan ayrim kitob va maqolalarda berilgan fikr – mulohazalarni uchratish mumkin bo'lsada, amalga oshirilgan yaxlit, tugallangan ilmiy ish mavjud emas.

Vatanimizda, to'la mustaqillikka erishgan va uni dunyoning barcha davlatlari e'tirof etayotgan bugungi xur zamonda, xorijiy adabiyotlar tarixini o'rganish va xorijiy tillarda ilmiy izlanishlar olib borishga talab ortib borayotgan bir maxalda ketma-ket nashr etilayotgan ilmiy maqolalar va bevosita amalga oshirilayotgan ilmiy ishlar va tarjimalar mana shunday ilmiy ishlarni sonini oshirishni va sifatini yaxshilashni taqozo qilmoqda.

Ishning maqsadi Skot ijodida alohida o'rin egallagan tarixiy roman janridagi asarlarni badiiy va lisoniy tahlil qilish, mazmun va g'oyaning shakl bilan munosabatini o'rganib chiqish va hosil bo'lgan material asosida tegishli xulosalarga kelish quyidagi vazifalarni yechishni taqozo etadi:

- Mazmun va g'oyaning shakl bilan munosabatini o'rganib chiqish.
- Tarixiy roman janridagi asarlarning o'ziga xos tomonlarni aniqlab chiqish.
- Keyingi izlanishlarga foydali bo'lishi mumkin bo'lgan xulosa va fikrlarni ishlab chiqish.

Ishning yo'nalishi. Belgilangan vazifalarni bajarish adabiy tahlil yo'nalishida, ingliz tilidagi tarixiy romanlarning o'ziga xos tomonlarini aniqlab, ko'rsatib berishni taqozo etadi.

Tadqiqot predmeti-O'zbek va Ingliz tilidagi Valter Skotning hayoti va ijodi haqida yozilgan manbalarni qiyosiy o'rganish va asarlarni taxlili.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari:

- ✓ Romantizm davri ingliz adabiyotining o'ziga xos tomonlari (ijtimoiy-siyosiy vaziyat)
- ✓ Ingliz romantizmida romanchilik

- ✓ V. Skot hayoti va adabiy faoliyati. tarixiy roman yozish san'ati
- ✓ V.Skot asarlarida vatanparvarlik motivlarining aks ettirilishi.
- ✓ V.Skotning "Ayvengo" asari tahlili
- ✓ V. Skotning asarlaridan foydalanish va tarjima qilish xususida

Ishning asosiy metodlari qilib matnni lisoniy tahlil qilish, struktural tahlil qilish, qiyosiy tahlil qilish kabi metodlar olingan.

Ishning ilmiy yangiligi quyidagilar bilan belgilanadi:

- vazifa belgilash chog'ida mazkur vazifa yuzasidan izlanishlar deyarli olib borilmaganligi.
- "Ayvengo"ni o'rganib chiqish va ilmiy- nazariy jihatlarini tadqiq qilish.
- Mavjud ishlarni qiyosiy tahlil qilish.

Ishning nazariy ahamiyati Valter Skot asarlarining yozilish tarixi va uning yozilish sabablari, shakl va mazmun munosabatlarini o'rganib chiqish va ilmiy-nazariy jihatlarini tadqiq qilish bilan belgilab beriladi. Mazkur asarlarning qiymati va ahamiyati beqiyosdir. U keyingi mazkur janrdagi asarlarga turtki va namuna bo'lib xizmat qila oladi. Mazkur bitiruv malakaviy ish natijalaridan tarjima va adabiyotga oid bitiruv malakaviy ishlarda foydalanish mumkin.

Amaliy ahamiyati.

Mazkur ish natijalari "Ingliz adabiyoti tarixi" darslarining rejalarini ishlab chiqishda manbaa sifatida xizmat qilishi mumkin.

Ishning tuzilishi unga maqsad va vazifalarning belgilab berilishi va ularni yechish ketma- ketligidan iborat bo'lishidan kelib chiqadi. Ish rejasi kirish, uch bob va xulosa qismlaridan iborat, bundan tashqari foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati ham berilgan.

I BOB. ROMANTIZM DAVRI INGLIZ ADABIYOTI

I. 1. Romantizm davri ingliz adabiyotining o'ziga xos tomonlari (ijtimoiy-siyosiy vaziyat)

Evropada romantizm adabiyoti XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshlarida shakllandi. XIX asrning tanqidiy realist yozuvchilari voqeylikni kengroq, chuqurroq aks ettirishda romantiklar to'plagan ijodiy tajribaga suyanadilar. Romantizm adabiyotining barkamol xarakterlar yaratish hayot ziddiyatlarini yirik kontrast obrazlar to'qnashuvida ko'rsatib berish kabi xususiyatlar yirik yozuvchilar realizmning shakllanishiga o'z hissasini qo'shdi. Nemis adabiyotida romantizm davrida ertak janri nihoyatda rivojlanadi. Xalq og'zaki ijodining boy xazinalaridan to'plagan aka-uka Grimmlar hamda Gofmanning ertaklari alohida o'rinni egallaydi. Gofman ijodi uchun xarakterli narsa san'at va san'atkor mavzui bo'ldi. Yozuvchining Kresler tarixiga oid ocherklari uning nomini adabiyot olamiga tanitdi.

Ingliz adabiyotida romantizm yevropa inqilobiy harakati davrida shakllangan bo'lib, ingliz romantiklari mavzuni qaysi davrdan olishlariga qaramay, o'z zamonasiga murojaat qildilar. Bayron ijodida davrning barcha ziddiyatlari aks etgan. Sharq dostonlarida shoirning adolatsiz jamiyatga nisbatan munosabati ko'rsatilgan. «Don Juan» asarida shoir zamonasidagi muhim ijtimoiy voqealarga, masalalarga o'zining tanqidiy munosabatini bildiradi. Ingliz romantiklaridan Shelli poemalar, hajviy va ishqiy mavzudagi lirik she'rlar muallifi. V. Skott esa tarixiy romanlar muallifi sifatida adabiyotda nom qoldirdi.

Frantsuz adabiyotida romantizm yo'nalishining negizida inqilob tufayli yuzaga kelgan tartiblar yotadi. Ilg'or frantsuz romantiklari J.Sand, V.Gyugolar ilg'or romantiklardir. Bular mavzuni o'z xalqi tarixidan, milliy tarixdan axtardilar. Bu yozuvchilar o'z asarlarida frantsuz xalq tilining boyliklaridan unumli foydalanadi, frantsuz she'r tuzilishini yangi vaznlar, xilma-xil qofiya, milliy kolorit keng xalq lug'ati bilan boyitdi.

Amerika adabiyotida ko'zga ko'ringan romantik yozuvchilar Vashington Irving, Fenimor Kuperlardir. F.Kuper Amerika adabiyotida tarixiy romanlar muallifi sifatida shuhrat qozongan yozuvchidir. Uning ijodini uch davrga bo'lib o'rganamiz. Birinchi davrida Amerikadagi adolatsizliklarni qoralagan bo'lsa, ikkinchi davrini yevropa mamlakatlari tarixiga bag'ishlaydi, uchinchi davrini esa AQSh ijtimoiy tuzumini tanqid qilishga bag'ishlagan.

Nemis taraqqiyparvar romantizmining vakillari F. Gel derlin, A. Shamisso, A.Gofman, aka-uka Grimmlar hisoblanadi. Bu davr nemis adabiyotida ertak janri nihoyatda rivojlanadi. Xalq og'zaki ijodining boyxazinalaridan to'plangan aka-uka Grimmlar hamda Gofmanning ertaklari alohida ahamiyat kasb etadi.

Ernst Teodor Amadey Gofman ijodi XIX asr boshlaridagi nemis adabiy hayotidagi muhim voqea bo'ldi. Gofman Kenigsberg shahrida amaldor oilasida 1776 yilda tug'iladi. U universitetning huquq fakul tetiga o'qishga kiradi. Lekin u huquq ishlariga emas, musiqa tasviriy san'at hamda adabiyotga zo'r ishtiyoq ko'rsatadi. 1809 yili Leyptsigdagi «Umumiy musiqa gazetasi»ning redaktori Gofmanga istedodli musiqachi, ammo qashshoqlikka duchor bo'lgan kompozitor Kreysler tarixini topshiradi. Tez orada bu gazeta sahifalarida Gofmanning Kreslerga bag'ishlangan original ocherklari paydo bo'ladi. Bu ocherklar shuhrat qozonib, Gofman nomini butun adabiyot olamiga tanitadi. Shundan keyin yozuvchining «Kavaler Glyuk», «Don Juan» nomli novellalari, musiqa haqidagi maqolalari birin-ketin bosilib chiqdi. San'at mavzui va uning hayotga munosabati Gofman ijodining oxirigacha davom etadi.

1814 yili Gofman uzoq vaqt darbadarlikdan so'ng Berlinga ko'chib keladi, ijtimoiy-siyosiy voqealarga aralashadi. Ammo uning sog'lig'i yildan-yilga yomonlashib, 1822 yili 46 yoshida vafot etadi.

Jozibador novellalar muallifi Gofmanning «Tungi hikoyalari» (1817), «Sarapion muridlari» (1821), «TSinnober laqabli mitti TSaxes» (1819) ertagi, «Mushuk Murrning xotiralari» (1821) romani ham mashhur.

Ernest Teodor Amadey Gofman asarlarida azob-uqubatlarga duchor qilingan bechora odamlarga xayrixohlik, mehribonlik bildiriladi. Yozuvchining kurash quroli bo'lmish hajviyot o'sha zamon amaldorlariga, aristokrat meshchanlarga qarshi charxlangan. Gofmanning «Kichkina TSaxes» nomli ertak shakliga solib yozilgan satirasidir.

Gofman asarlarida romantik voqealarning real hayotdan uzoqligi sababini Belinskiy o'sha zamon nemis ijtimoiy muhitining chirkinligida ko'radi. Ulug' tanqidchi Gofman ijodidagi romantik fantaziya uning asarlaridagi zaiflikni bildirsa, undagi san'atga bo'lgan hurmat, yumor, jonli o'xshatishlar, tanqidiy mayl adib ijodining ijobiy tomonlarini namoyish etar edi.

Gofman asarlarining badiiyligi, rang-barang vositalarga boy tili, musiqiy ohangdorligi kishini o'ziga maftun qiladi. XIX asr boshlarida Angliyada ludditlar harakati avj oladi. Ludditlar–mashina buzuvchilar, XIX asr boshida Angliyada sanoat taraqqiyoti natijasida ishsizlikdan xonavayron bo'lgan ishchilar harakatidir. Angliya parlamenti ludditlarga qarshi

adolatsiz qonun qabul qilgan. Parlament qonuniga qarshi Bayron ludditlarni himoya qilib nutq so'zlagan edi.

Mana shunday sharoitda shakllangan ingliz romantizmi uch xil oqimga bo'lingan. Birinchi oqim «Ko'l maktabi» yoki «Leykistlar» deb nom oladi. Bu oqim vakillari Vordsvort, Sauti hamda Kolrij edilar. Ikkinchisi taraqqiyparvar inqilobiy romantizm vakillari Bayron va Shelli edilar. Uchinchi oqim vakillari London romantiklari deb nom oladilarki, bunga Kits, Lem, Xezlitt kabi yozuvchilar birlashgan edilar.

Angliya romantiklarini keskin ravishda, mutlaqo reaksion yoki revolyutsion degan tamg'a ostiga olib bo'lmaydi. Masalan, «Ko'l maktabi» vakillari bo'lgan, «Leykistlar» deb nom olgan Vordsvort, Kolrij va Sauti kabi yozuvchilarni butunlay reaksion romantiklar deyish ham to'g'ri emas. Shuningdek Angliya romantiklari ham birmuncha taraqqiyparvarlik mavqeyida turib ijod qilganlar. Shu tariqa ingliz romantizmi o'ziga xos milliy xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Jorj Gardon Noel Bayron ingliz romantizm adabiyotining zabardast vakillaridan biri. U 1788 yili aristokrat oilasida tug'iladi. Bo'lajak shoirning yoshlik yillari Shotlandiyada o'tadi. Kembrij universitetini tugatadi. O'rta yer dengizi bo'ylab ikki yillik safarga chiqadi. Ispaniya, Mal ta, Albaniya, Turkiya, Portugaliya hamda Gretsiyani aylanib chiqadi.

«Chayl d Garoldning ziyorati» bu asar chuqur lirizm bilan sug'orilgan, siyosiy mavzuda yozilgan. Bayron ijodida alohida o'rin tutadi. Asar qahramoni zodagon yigit Chayl d Garold Angliya yaramas muhitidan bug'iladi. Dostonning birinchi va ikkinchi qismlarida asar qahramoni muallifning o'zi safar qilgan mamlakatlar: Portugaliya, Ispaniya, Al baniya va Gretsiyada bo'ladi. Hamma yerda erksizlik, zulm hukm surmoqda. Al baniyada uning diqqatini oddiy kishilar tortadi. Go'zal tabiat manzaralari qo'ynida xalqning qashshoq yashashi uni qayg'uga soladi. Dostonda Ispan vatanparvarlarining Napolion bosqinchilariga qarshi olib borilayotgan qahramonona kurashlar hikoya qilinadi. Ikkinchi qismida bir zamonlar buyuk bo'lgan Gretsiya endilikda Turkiya bosqinchilarining zulmi ostida ezilayotganligi haqidadir. Uchinchi va to'rtinchi qismlari 1816-1823 yillar shoir vatanidan chiqib ketishga majbur bo'lgandan keyin, Shveytsariya va Italiyada yozadi. Asarning uchinchi qismi birinchi Frantsuz burjua inqilobi (1789-1794) voqealariga bag'ishlanadi. Dostonning to'rtinchi qismi shoirning Italiya, uning o'tmishi va buyukligi haqidagi adabiy mushohadalar bilan boshlanadi.

Shoir dengiz to'lqinlarini kuzatar ekan, g'azabkor va o'z ozodligi uchun kurashayotgan xalq harakatini ana shu dahshatli dengiz to'lqinlariga qiyos qiladi.

Bayronning jo'shqin xalqona nutqlari 1813-1816 yillarda yaratgan «Sharq dostonlari» nomli to'plamiga kirgan «Gyaur», «Abidoss kelinchagi», «Korsar», «Lara», «Korinf qamali» hamda «Parizina» nomli romantik poemalari uning dushmanlarini haddan tashqari g'azablantirgan edi. Bayron 1815 yili Anabella Mil benk ismli aristokrat qizga uylanadi lekin u Bayronning intilishlarini tushunmaydi. Natajada 1816 yili Bayron o'z vatani Angliyani butunlay tashlab ketishga majbur bo'ladi.

«Sharq dostonlari»da shoirning adolatsiz jamiyatga nisbatan nafrati yanada ortib boradi. Asar qahramonlari hukmron jamiyatning murosasiz dushmanlaridir.

«Gyaur» dostonining qahramoni Leyla ismli ayolni sevadi. Ammo Leylaning rashkchi eri Hasan o'z xotining Gyaur bilan sevishganidan xabar topib, uni o'ldiradi. Bunga chiday olmagan Gyaur Leyla uchun Hasandan o'ch oladi. Asar oxirida uning Leyla ishqida azob chekib vafot etishi tasvirlanadi.

«Korsar»dostonining qahramoni Konrad dengiz qaroqchilarining boshlig'i. Konrad jamiyatdan bezib, dengizdagi orollardan birida yashaydi. Uning maqsadi madaniy jamiyatdan o'ch olish, unga qarshi kurashishdir. Bayron qahramonlari ehtirosli. Isyonkor shaxslardir. Ammo ular yolg'iz kurashchilar.

Bayron bir qancha lirik she'rlar silsilasini yaratdi. «Yaxudiy melodiylari» deb nomlangan to'plamda ham shoirning sharq dostonlarida bo'lganidek tushkunlik, hayotdan nolish kayfiyatlari aks etadi. Bayron 1816 yil Jineva vatanparvari Bonivar jasoratini tarannum qilgan «Shil on tutquni» asarini yozadi. 1817-1821 yillar orasida

shoir yangi adabiy romantik dramalar turkumini yaratdi. Bunga «Manfred», «Osmon va yer», «Kain» nomli ajoyib falsafiy mulohazalarga boy dramatik asarlarini yaratdi.

Bayronning «Don Juan» romani 1824 yilda yoziladi. Shoir bu asarining voqealarini XVIII asrga ko'chiradi. Bunda Bayron o'zi yashab turgan davrning eng dolzarb voqealarini yoritib beradi. Roman qahramoni Don Juan Ispaniyalik dvoryan. U ayollarga nisbatan suyuqoyoq, yengiltak zodagon yigit sifatida tasvirlanadi. Don Juan ayni paytda zamonasida hukm surayotgan urushlarni, adolatsizliklarni, xalq boshiga tushgan og'ir kulfatlarni fosh qiluvchi odil hakamlik rolini o'ynaydi. Shuning uchun ham Don Juan obrazi doimo o'sishda, o'zgarishda ko'rsatiladi.

Don Juanning ota-onasi uni diniy maktabga beradi. Maktabdan quvilgan Don Juanni otasi safarga jo'natadi. Kema halokatga uchrab, Gretsiya qirg'oqlaridagi orollardan biriga chiqib qoladi. U yerlik Gyaur ismli qiz Don Juanni topib oladi, qizning otasi Don Juanni Turkiya bozorida qul qilib sotib yuboradi. Turk sultonining kichik xotini bozorda chiroyli yigit sotilayotganini eshitib, uni sotib oladi va ayol kiyimini kiydirib sulton xaramiga olib kiradi. Turkiya sultoni saroyiga tushib qolgan Don Juan bu yerda hukm surayotgan shafqatsizlik bilan buzuqliklarning guvohi bo'ladi. Ko'rinadiki, Don Juan obrazi shoirning romantik qahramonlaridan farq qiladi. Don Juan mutlaqo real voqealar, real odamlar bilan to'qnashadi. Uning hayoti ham, tarjimai holi ham, oddiy odamlarnikidek. Shu sababdan Don Juan obrazi realizmga yaqin turadi. Bayron barcha asarlarida zulmga qarshi murosasiz kurashchi bo'lib qoldi. Shuning uchun ham uni «Jahon qayg'usini kuylagan shoir» deb atashadi.

Persi Bishi Shelli ingliz adabiyotining ko'zga ko'ringan vakillaridan biri. U dvoryan oilasida 1792 yilda tug'iladi. Avvalo Iton kollejida, so'ngra Oksford universitetida o'qidi. Shelli talabalik yillarida ilg'or o'qituvchilarning ta'siri ostida bo'ldi. Shuning natijasi o'laroq, o'rtog'i Xogg bilan birga «Dahriylikning zarurligi» degan broshyura yozadi. Bu asari uchun Shelli va Xogg universitetdan zaydaladi. 1818 yili Shelli o'z vatanidan haydaladi. 1822 yili shoir dengizga cho'kib o'ladi.

Shellining muhim asarlari «Qirolicha Mab» (1813y.), «Islom qo'zg'oloni» (1818y.), «Ozod qilingan Prometey» (1820) poemalari, «Chenchi» (1819) fojiasi va bir qancha siyosiy, hajviy, ishqiy mavzudagi lirik she'rlaridir.

«Qirolicha Mab» didaktik dostonida zamonasidagi ijtimoiy tuzumga, burjua axloqiga, kishilarni qullikka chaqiruvchi diniy safsatalarga qarshi kurash ochadi. Avtorning maqsadi mehnat ahli hisobiga yashayotgan zolimlar, tekinox'rlarni ayovsiz fosh qilishdan iborat. Garchi dostonning syujeti voqealari fantastik sayyoralar olamida, koinot bo'shliqlarida bo'lib o'tsa-da, lekin Shelli yer yuzi, butun insoniyat hayotini, mehnatkashlarning azob-uqubatini ifodalab berishga harakat qiladi.

«Islom qo'zg'oloni» Shellining birinchi Frantsuz burjua inqilobiga hamda yevropa mamlakatlarida yuz berayotgan ishchilar harakatiga bo'lgan munosabati ifodalangan. Asar syujeti Turkiyadan olingan. Asar qahramoni Laon va TSitna ismli mamlakat aholisini, Sharqning mazlum xalqini zulmga qarshi kurashga undaydi. «Ozod qilingan Prometey» asari romantik usulda yozilgan. Prometey insonlarning do'sti. Yupiter esa, zolim ekspulattor sinf vakili. Asrda shoir Yupiter va Prometey o'rtasidagi kurashlarni aks ettiradi. Ozodlikka erishgan kishilik jamiyatining kelajakdagi qiyofasini chizib, sinfsiz jamiyat, erkin mehnat asosiga qurilgan adolatli tuzum qaror topishini bashorat qiladi.

Agar Shelli avvalgi asarlarida uzoq o'tmishga murojaat etib, fantastik, mifologik syujetlarni ishlagan bo'lsa, «Chenchi» fojiasida realizmga yaqinlashib keladi. Bu asarda XIV asrga oid Rim kutubxonasida saqlangan bir oylaning achchiq qismatini hikoya qiluvchi xronikani o'z asariga asos qilib oladi. Graf Chenchining buzuqligi shu darajaga borib yetadiki, u o'z qizi Beatrichega ham ko'z olaytiradi. Nomusi poymol qilingan qiz Beatriche onasi va uydan haydalgan akalari bilan maslahatlashib, zolim va buzuq otadan o'ch olish, oilaning or-nomusini saqlab qolishga qaror qiladi.

Angliyaning yirik yozuvchilaridan biri Valter Skott ajoyib san'atkor, tarixiy romanlar muallifi sifatida jahon adabiyoti xazinasiga barakali hissa qo'shdi. Valter Skott tarixiy jarayonlarning rivojlanishini sinchkovlik bilan kuzatdi. Xalq ommasi harakatining tarixda o'ynagan ob'ektiv rolini odilona aks ettirdi. Ana shular yozuvchi

yaratgan tarixiy romanlarning haqqoniyligini ta'minlagan omillar edi. Yozuvchi 1771 yilda Shotlandiyada dvoryan oilasida tug'iladi. Valter Skott ijodini xarakteriga qarab, uch davrga ajratish mumkin.

Birinchi davr: 1796-1813 yillar dastlabki poemalar yaratilgan davr.

Ikkinchi davr: 1814-1818 yillar bo'lib, bu yillarda Skott Shotlandiya tarixidan olib yozgan ajoyib romanlarini «Ueverli», «Gay Mannering», «Antikvari», «Puritanlar», «Rob Roy», «Edinburg zindoni» yaratadi.

Uchinchi davr: 1819-1832 yillarni qamraydi. Bu davrda yozuvchi Angliya, Frantsiya hamda Shotlandiya tarixiga, boshqa davlatlarning uzoq o'tmishiga murojaat qilib, «Ayvengo», «Kenil vord», «Kventin Dorvard», «Gudstok», «Pert go'zali» kabi romanlarini yozadi.

Romantizmning tarixiy kelib chiqishi. Romantizm yoki o'qish, ilm olishga qiziqishning qaytishi yevropada o'zidan oldin yoki keyingi davrlarda hech kuzatilmagan madaniyatning eng cho'qqiga chiqqan davri bo'ldi.

1798 yildan 1837 yilgacha angliyada yashagan ziyoli kishilar o'zlari yashayotgan davrni 1800 yillarning oxirigacha hali hech kim romantik davr deb rasman atamagan bo'lsada, uning qandaydir faqatgini shu davrga xos va dramatik xususiyatga ega ekanini yaxshi blishardi. Keyinchalik buyuk essechilardan biri bo'lmish Vilyam Xazlit ushbu davr xaqida to'xtalar ekan shunday deydi, "Davlat arboblari va shoirlarning, qirollar va oddiy odamlarning ongilarida qandaydir ferment jarayoni ketar edi... . u davr ulkan imkoniyatlar, dunyo ishlari va yozuvda yangilanish davri edi." Bu paytga kelib aksariyat yevropa davlatlari va natijada Amerikda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy hayotda tubdan o'zgarishlar kuzatildi. Butun yevropa bo'ylab revolyutsiyalar shamoli esib o'tda va mana shu yangicha energiya ta'sirida niche adabiyot vujudga keldi.

1800 yillarning boshiga kelib Frantsiyadagi siyosiy xolat Angliyadagi axvolga juda katta ta'sir ko'rsata boshladi. 1789 yili boshlangan Frantsuz inqilobi, qirol hukumatining salbiy jixatlariga qarshi qaratilgan va xalqqa tenglik olib kelishni maqsad qilib olgan edi. Lekin, inqilobiy kuchlar xalq orzu qilganday bo'lib chiqishmada va hokimiyat tepasiga kelib olganlaridan so'ng shafqatsizlikka moyil bo'lib qolishdi va ko'pchilik odmlar bundan aziyat cheka boshlashdi. Beshafqatlik – ayniqsa Robespyer boshchiligidagi qo'zg'alonghilar 1793-1794 yillarda qamoqqa olingan zodagonlarni bima-bir qirg'in qilinganda, qirol Lyuis o'n oltinchini va uning rafiqasi qirolicha Meri Antuanettani omma ldida qatl qilishganda, va minglab odamlar gilyatinada (jovduda) o'z o'limlarini topishganda namoyon bo'ldi. Mazkur xolatni ko'rgan inglizlarning ko'zlari ochiib qoldi va inqilloblarning oqibati yaxshi emas ekanini sezib qolishdi. Endi ular frantsuz inqilobiy kuchlariga xayrixoxlik bildirishmay qo'ydi va ularga har qanday yordam va ko'mak berishni bas qilishdi.

Ustiga-ustak 1793 yili Frantsiya Angliyaga urush e'lon qilgani yara ustiga chipqondek bo'ldi. Shundan so'ng to 1815 yilgacha Frantsiya va Angliya bir to'xtab bir davom etadigan o'zaro urushlar iskanjasida qoldi. 1804 yilga kelib Napoleon Bonapart o'zini Frantsiya imperatori deb e'lon qildi. 1805 yili esa Angliya xarbiy dengiz floti Ispaniyaning Trafalgar qishlog'i yaqinida frantsuz floti ustidan uzil kesil g'alabaga erishdi (bu g'alaba sharafiga London markazida Trafalgar maydoni barpo etildi). 1815 yili esa ingliz piyoda qo'shinlari frantsuzlar ustidan Vaterlo yaqinida g'alabaga erishdi. Frantsiya mahlub bo'ldi. Shundan so'ng Venada o'tkazilgan tinchlik konferentsiyasida Frantsiya va yevropaning boshqa davlatlariga ilgari absolyut monarxiya tizimi qaytarib berilishi xaqida kelishuvga erishildi. Bu voqea esa o'z navbatida demokratik g'oyalarni olg'a surayotgan progressiv kuchlarga qattiq zarba bo'ldi.

Frantsiya bilan kelisha olmayotgan Angliyani o'z navbatida ichki nizo va kelishmovchiliklar, tartibsizliklar ham qiynayotgan edi. Eng avvalo Angliyaning Ganoverlik qiroli Jorj uchinchi 1811 yili uzoq muddatga va davolab bo'lmas kasal deb e'lon qilindi. Davlatni uning o'g'li Uels shaxzodasi Jorj regent lavozimida boshqarib turdi. 1820 yili otasining vafotidan so'ng u taxtga o'tirdi va o'n yil mobaynida davlatni boshqardi va liberal ozchilikning ashaddiy dushmaniga aylandi.

Frantsiya bilan urush davom etar ekan mamlakat ichkarisida ichki dushmanlar deb e'lon qilingan siyosiy reformatorlar va tashviqotchilarga qarshi kurash ham avj oldi. Axborot vositalari, so'z erkinligi va turli yig'ilishlarga cheklovlar qo'yildi.

1830 yili qirol Jorj vafot etdi va uning anchayin liberal bo'lgan ukasi Vilyam to'rtinchi taxtga o'tirdi. Uning hukmronligi davrida birinchi tarixiy 1832 yilgi qonun loyixasi parlamentdan o'tdi. Bu qonunga ko'ra endi aholinig oldingiga qaraganda ko'proq erkaklari saylovlarda ovoz berish xuquqiga ega bo'lishdi, bu voqea demokratiyaning keyingi rivoji yo'lida qo'yilgan katta qadamlardan biri sifatida tarix saxifalarida qoldi.

1760 yillarda butun Agliya bo'ylab sanoat inqilobi boshlangan edi va o'z o'zidan uning natijalari ijtimoiy-iqtisodiy hayotda katta o'zgarishlarga olib keldi. Avvalgi keng foydalanilgan qo'l kuchi o'rniga yangi mashina va texnik vositalar ishlatila boshlandi va bu narsa millatni qishloq xo'jaligiga asoslangan agrar iqtisodiy tizimidan shaxar va sanoatlashgan millatga olib chiqdi. yerdan daromad olish oldingiga qaraganda birmuncha qiyin bo'lib ketdi va u katta yer egalari qo'lga o'tib ketdi. Shaxarlarda yangi sinf – ishchilar sinfi vujudga kela boshladi. Ularning ko'pchiligi qiyin sharoitlarda ishlashiga to'g'ri kelgan kambag'al ishchilar edi. Ularni uzoq ish soatlar, yomon sog'liklari, kam maosh va qo'pol muomala kabi qiyinchiliklar qiynardi.

Zodagonlar esa yangi moda ortidan quvishar, ayollar Napoleonninng xotini Jozefina kiygan kiyimlar va liboslarga taqlid qilib kiyinishar, atir upalar va turli soch turmaklarini o'ylab topishardi.

Shunday bo'lsada barcha zodagon va boy inglizlar bu taqlid hayot kechirishmasdi. Ular orasida shoir Bayron, ijtimoiy faylasuf Vilyam Godvin va cherkovni isloh qilish istagida bo'lgan ruxoniylar kabi progressiv g'oyali kishilar ham talaygina topilardi. Bunday odamlar gumanizm g'oyalari bilan yashar va odamlar turmush tarzini yaxshilashga intilishardi. Mana shunday fidoyi odamlarning sa'y-harakatlari tufayli 1807 yilda Britaniya koloniyalarida qul savdosi bekor qilindi va 1833 yil butun Britaniya koloniyalari bo'ylab qullik rasman bekor qilindi.

Fanning geologiya, kimyo, fizika va astronomiya kabi sohalarda erishilgan yutuqlar romantik davrda salmoqli o'rin egallaydi. Meditsinada soxasida erishilgan olamshumul yutuqlar ham diqqatga sazovor bo'lsada umumiy tibbiy holat va axoli sog'ligin saqlash tarzi yaxshi emas edi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Romantizm davri Angliyada qiyin shart sharoitlar hukmron edi, lekin, odamlar yaxshiroq yashashga harakat qilishdi va bunga yetarlicha imkoniyatlarga imkoniyatlarga ega bo'la boshlashdi.

Oddiy ishchi odamlarning kuchi ahamiyati va odamlarni jabr-zulmdan erkinlikka chiqarish imkoniyatlarini romantik shoirlar birinchilardan bo'lib his qila boshlashdi va mazkur g'oyalarni o'z asarlarida keng omma e'tiboriga havola qilishga imkoniyat izlashdi va bu maqsadlariga qaysidir ma'noda muvaffaq ham bo'lishdi.

Romantizm deb atalmish adabiy oqim 1700 yillardan oldin mavjud bo'lgan progressiv fikr va xissiyotlarni qayta tug'ilishini o'zida namoyon etadigan harakatdir va shuni aytib o'tish joizki mazkur fikrlar hech qachon butunlay yo'q bo'lib ketmagan. Romantizm yangi kayfiyat, yangi ruhiyatni boshlab berar ekan, dunyo ahli bundan oldin ham romantik asar deb atalishi mumkin bo'lgan asarlarga guvox bo'lgan edi. Ayniqsa qadimiy Grek epik asarlari, o'rta asrlar adabiyotinig ko'pchilik qismi, uyg'onish davri adabiyotinig ayrim na'munalari mazkur fikrimizga to'la qonli misol bo'la oladi.

Mazkur asarlar va ingliz romantik adabiyoti asarlarining barchasi sarguzasht, ehtiros, go'zallikka oshnolik, muhabbat, odamlardagi bashanglik (ijobiy ma'noda) va g'ayritabiiy xodisalarga urg'u berishgan. Mazkur davrlardagi romantizm printsiplari yana bir asosiy adabiy oqimlardan bo'lmish klassitsizm yoki neoklassitsizm printsiplari bilan qiyoslab o'rganilishi mumkin. Adabiy kayfiyat mayog'i chamasi mazkur ikki adabiy an`analar o'rtasida ularni aniq ikki tarfga ajratib turadi.

Quyida 1700 yilar adbiyotiga xos bo'lgan neoklassisizm va 1800 yillarning boshlariga xos bo'lgan romantisizmlarning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib o'tishga harakat qilamiz. Shu o'rinda 1798 – 1837 yillar adabiyotidan oldingi adabiyotga ham romantizmning ayrim jihatlari xos bo'lganligini yoddan chiqarimaslik kerak. Shunday qilib yuqorida so'z borgan xususiyatlar quyidagicha:

Neoklassik

An`ana
Jamiyat
Qishloq hayoti
Sun`iy
Ong va sabab
Umumiy
Mantiqiy va og'ir bosiq
Zodagonlarga xos
Ishlov berilgan (Honaki)
Rasmiy uslub

Romantik

Tajriba
Shaxs
Shaxar Hayoti
Tabiatga muhabbat
Tasavvur, hissiyot
Shaxsiy va moddiy
Mistik va g'ayritabiiy
Oddiy odamlarga xos
Primitiv (yovvoyi)
Tabiiy uslub

Mazkur davr, ya`ni 1700 yillarning eng ko'zga ko'ringan uchta shoirlari – Vilyam Bleyk, Tomas grey va Robert Bernslarning asarlari ham romantik va ham o'ziga xos, ajrab turadigan xususiyatlarga ega

edi. Shu o'rinda savol tug'iladi, "Nima uchun Ingliz adabiyoti o'zining mavzusini shundoqqina asrlar almashinuvida bunchalik keskin o'zgartirib yubordi ekan"?

Albatta tarixiy shart – sharoitlar va rivojlanish bosqichlari romantizm g'oyalari shakllanishida katta rol o'ynadi va uning rivojlanish bosqichlarini belgilab berdi. Bundan tashqari industrial o'zgarishlar, sanoatning rivojlanishi va yirik shaxarlarning integrallashuvi, ishchilarning qiyin ijtimoiy shart-sharoitlari va millatning shaxarlarga ko'chib o'tishi adabiy asarlarda ham ma'lum o'zgarishlarni talab qilardi.

Bundan tashqari Fratsuz faylasufi Jan Jak Russo g'oyalarining ingliz romantiklariga ta'siri ham beqiyos bo'ldi. U o'z ishlarida 1700 yillar sovuq mantig'iga qarshi chiqdi va odamlarni ko'proq tajriba qilishga, yangi narsalarni qo'rqmasdan sinab ko'rishga va xur fikrlilikka chorladi. U inson jamiyatning yasama cheklovlaridan ozod holdagi inson eng diqqatga sazovor inson deb ishonardi.

Ingliz adabiyotida romantizm adabiyotining paydo bo'lgan paytini aniq aytishimiz mumkin. Romantizm ingliz adabiyotida 1798 yili Vilyam Vordvors va Samuel Teylor Kolorij larning hamkorlikda chop ettirgan "Lirik balladalar" nomli she'riy to'plam nashrdan chiqqanda boshlandi desak hatto bo'lmaydi. Mazkur asar o'zining mazmuni (g'oyasi) va nazariyasi jihatidan ham katta yangilik edi.

I.2 INGLIZ ROMANTIZMIDA ROMANCHILIK

Ingliz romantizmi romanchiligidagi Gotik roman juda mashxur bo'lib ketdi. Mazkur turdagi roman ko'pincha g'ayritabiiy xodisalarni o'z ichiga olar va tashlandiq qaslaru vahimam xarobalarda sodir bo'lardi. Bunday turdagi romanlardan eng mashxuri romantik shoirlardan biri bo'lmish Persi Bishi Shellining rrafiqasi Meri Shelli tomonidan yozilgan "Frankenshteyn" edi desak xato bo'lmas kerak. Frankenshteyn g'ayritabiiy xodisalar tabiati va kelib chiqishini o'rganishga, yovuzlikning boshlang'ich nuqtasini topishga va sanoatlashgan yangi davrda mexanizatsiyalashtirishning olib kelishi mumkin bo'lgan oqibatlarini tahlil qilishga harakat qiladi.

Ingliz adabiyotida eng katta hurmatga loyiq romanchilardan ikkitasi aynan romantizm davrida ijod qilishdi. Ulardan biri Jeyn Ostindir. Ostin romanlari boshqa romanlardan keskin farq qilardi. Uning asarlari romantizm oqimi harakati eng cho'qqiga chiqqan mahalda dunyo yuzini ko'rgan bo'lishiga qaramay, romantik qarashlar unga unchalik ta'sir qilmaganday ko'rinadi. Uning asarlarida syujet uy sharoiti va oila davrasi atrofida quriladi. Uning eng mashxur romani "Furur va xurofot" ("Pride and Prejudice") asaridir mazkur asar o'n sakkizinchi asr ingliz shaxarchalaridan birida yashovchi yumshoq tabiat oia hayotini aks ettiradi.

Ostin asarlari ko'pincha turmushga chiqadigan qizlarga mos keluvchi kuyov topish harakati atrofida quriladi. Syujetning ko'pchilik qismi xuddi p yesadagi dialoglar kabi chiroyli suxbatlar yordamida shakllanadi. Mazkur dialog qaxramonning ichki dunyosini ochib beradi va syujetni yangicha "sayqallangan" yo'ldan boshlab boradi. Ostin suhbatni diqqat bilan kuzata olardi (tinglay emas, aynan kuzata olardi) va satirani nozik qirralarini tushuna oladigan farosatli ayol edi. Vaholanki u romantizm davrida ijod qilsada, uning asarlarida romantizmdan ko'ra ko'proq neoklassisizm jihatlari sezilib turadi. Hayotlik chog'ida Ostinni ixlosmandlari ko'p bo'lmagan bo'lsada, bugungi kunda u Angliyaning eng sevimlm romanchilardan biriga aylangan. Bundan tashqari Ostin dialoglardan foydalanish orqali zamonaviy romanchilik rivojiga ham katta xissa qo'shgan . uning ko'plab asarlari asosida stsenariylar yozilib saxnalashtirilgan va ekranlashtirilgan.

Romantizm davrining yana bir ulkan romanchisi albatta Valter Skotdir. U 1771 yili Shotlandiyada tug'ilgan va sargushasht ruxidagi romanlar ijod qilgan. U hayotlik chog'ida juda mashxur bo'lgan va bugungi kunda tarixiy roman janrining asoschisi sifatida talqin qilinadi. Russo kabi Skot ham xur fikrlilik jamiyatni rivojlanishga olib keladi deb ishonardi. Mana shu fikri, tabiatni va afsonaviy tarixni sevishi Valter Skotni xaqiqiy romantik yozuvchi deyishimizga sabab bo'la oladi.

II BOB. SKOT TARIXIY ROMAN ASOSCHISI SIFATIDA

II. 1. V. Skot hayoti va adabiy faoliyati.

Tarixiy roman yozish san`ati

Ser Valter Skot, tarixiy roman janrining birinchi buyuk namoyandasi, Edinburgda 1771 yil 15 avgustda tug`ilgan. Uning otasi jangovor suloladan bo`lmish Beklular sulolasidan bo`lib Edinburgdagi qonunshunoslardan biri zdi. U sulolasidan birinchi bo`lib shaxarda yashagan va muqim bir kasb bilan shug`ullangan akil edi. Oila katta edi va bo`lg`usi yozuvchi oilada to`qqizinchi farzand edi. Ikki yoshga kirib ulgurmagani bola jiddiy kasalga uchradi va natjada bir umrga cho`loq bo`lib qoldi. Uning ta onasi bolakay uchun havo almashtirish va qishloq havosi foydali bo`ladi deb o`ylab uni bobosining Sendi Nov deb nomlanmish fermasiga yuborishdi. U yerda balandliklar va jarliklar hamda eski minora xarobalari bobr edi. Valter tez orada jismonan baquvvat bola bo`lib qoldi. Oqsoq bo`lishiga qaramay u tik balandliklarga chiqishda va ot choptirib yurishda boshqa bolalardan hech ham qolishmasdi. Buvasi unga Shotlandiya chegara hududlarida sodir bo`lgan ajoyib sarguzashtlar va eski qasrla haqidagi mistik voqe xodisalarni aytib berar edi. U Shotlandiyaning tarixini yaxshi ko`rar va uning farzandi ekanidan faxrlanardi va sevib o`rganardi va shotland balladalari va she`rlarini yoddan aytib yurishni yoqtirardi.

U yoshi ulg`ayib maktabga bora boshlaganda kitob o`qishni ashaddiy ishqiboziga aylandi: uning eng sevimli kitoblaridan biri “Qadimiy ingliz she`riyati yodgorliklari” nomli balladalar to`plami edi. Skot o`nbesh yoshga kirganda Robert Berns yuilan shaxsan uchrashgan va bu uchrao`uv unda yoddan chiqmas taassurotlar qoldirgan.

Otasining taklifiga binoan Skot Qonunshunoslik kasbini egallaydi va o`n to`rt yil mobaynida mazkur kasb bilan shug`ullanadi. Ish bilan safarlarga chiqqan paytlarida tarixdan mashxur bo`lgan jang maydonlarini ko`zdan kechirar va og`izdan og`izga, avloddan avlodga o`tib kelayotgan qadimiy balladalarni yig`ardi. Ana shunday safarlari chog`ida u ko`plab qishloqlarda xonavayron bo`lgan oilalarni va otlandiyadagi harob bo`lgan qishloqlarini tashlab janubiy-g`arbiy Shotlandiyadagi ko`mir va temir konlari tomon ish topish uchun yo`l olgan ko`p minglab odamlarni ko`rardi. Odamlarning o`tgan davrlardagi iztiroblari yangi davr azoblari oldida juda yengil tus olardi.

Romantizmning boshqa ko`plab vakillari kabi Skot ham xalqning eng yaxshi kunlari o`tib ketgan va endi faqat qiyinchiliklar davri keldi deb o`ylardi. u o`timishning o`ziga ma`lum bo`lgan barcha tarixiy faktlarini ular esdan chiqib ketmay turib yozib qo`yishga va shu yo`l orqali o`tmishni saqlab qolishga astoydil bel bog`lagandi.

Yigirma olti yoshida skot uylandi va Edinburgdan uncha uzoq bo`lmagan Abbotsforddan katta yer sotib oldi va u yerda qasrga monand katta uy qurdi. Uning uyi bamisoli Shotland tarixi va madaniyatiga oid muzeyga aylangan edi: uning zallari, kutubxonasi va qurol aslaha xonasi skot to`plagan kamyob narsalar bilan to`ldirilgan edi. Ular orasida Rob Royning hamyoni, kiyik shohlari, noyob rasmlar va kitoblar, va shotlandlar qirolichasi Meri qatl qilingani olib ketilayotganda ko`targan xoj va shu kabi boshqa turli narsalarni topish mumkin edi.

Abbotsfolda Skot juda oddiy hayot kechirdi. Soat beshda turib birinchi qiladigan ishi yaxshi ko`rgan otini ko`zdan kechirish edi. Soat oltida u yozuv stoli oldida ijodiy ish bilan mashg`ul edi. U ko`p vaqti va kuchini ijodga baxshida qilgan edi. Tushlikka yaqin uning do`stlari unikiga kelar va Skot ular bilan ko`ngilxushlik qilishga, ularning ko`nglini olishga hamisha tayyor turardi. Shuni aytib o`tish joizki uning do`stlari orasida ko`plab mashxur odamlar bor edi.

Valter Skot, shoir

“Shotland halq balladalari” Skot nashr ettirgan dastlabki she`riy to`plam edi. Mazkur to`plam “Shotlandiya hududlaridagi kuylar” (“Minstrelsy of the Scottish Border”) deb nomlandi va uch bobdan tashkil topdi: birinchi va ikkinchilari 1802 yilda va uchinchisi 1803 yilda chop etildi. Shundan so`ng tez orada u o`zining romantik she`rlari bilan kitobxon nazariga tusha boshladi. Mazkur she`rlar ichida ko`pchilikka manzur bo`lganlari “So`nggi baxshining qo`shiqlari”, “Marmion”, “Ko`l xonimi” asarlari

bo'ldi. Skot she`riyatda qadimiy afsonalarni qayta yaratgan va ularni tarxiiy real voqea xodisalar bilan bog`lagan. Mazkur asarlar juda yetuk mahorat bilan yozilgan va Skotni mashxur qilgan tasvir kuchi bilan o`g`irilgan. Lekin vaqt o`tishi bilan ingliz she`riyatida Bayron kabi buyuk siymo paydo bo`lganidan keyin Skot shunday degan edi "She`riyat maydonini raqibimga tashlab ketaman".

Bayron bu paytga kelib Skotning yaqin do`stlaridan biriga aylanib ulgurgan edi va Skot she`riyatda birinchi bo`la olmasligini anglagach mazkur ijod turini tark etiga qaror qildi va romanlar yoza boshladi. Bu narsa esa yaxshi ibtido edi, chunonchi u yaxshi intixoga olib keldi. Bu davr Skot ijodiyotida yangi davr edi. 1812 yili u saroy shoiri lavozimidan voz kechdi, chunki u qirollik oialsi vakillarining tug`ilgan kunlarida ularga bag`ishlangan odalar va she`rlar yozish uning ijody faoliyatiga xalaqit berishini tushunar edi. Shunday qilib Valter Skot she`riy asarlar yozishni bas qildi va vaqt o`tishi bilan endi mashxur romanchiga va romanchilikda yangi oqim, maktab yaratgan kashfiyotchiga aylandi.

Lekin u shoir sifatida ham ingliz adabiyoti tarixida qadrlanadi va shoir sifatida ham ingliz adabiyotida o`zining o`rniga ega. Shunday bo`lsada Skot butun dunyoda aynan tarixiy roman janrining yetakchi ijodkori sifatida nom taratdi va kishilar qalbidan aynan ana shu rolda joy oldi.

Endi Valter Skotning ijodiga nazar tashlasak. Unga ko`ra biz asarlar royhati va yozilgan yillri bilan tanishamiz

She`riy yonalishda;

- An Apology for Tales of Terror (1799)
- Minstrelsy of the Scottish Border (1802-3)
- The Lay of the Last Minstrel (1805)
- Marmion (1808)
- The Lady of the Lake (1810)
- The Vision of Don Roderick (1811)
- Rokeby (1813)
- The Bridal of Triermain (1813)
- The Lord of the Isles (1815)
- The Field of Waterloo (1815)
- Harold the Dauntless (1817)

Romanchilik yonalishida;

- Waverley (1814)
- Guy Mannering (1815)
- The Antiquary (1816)
- The Black Dwarf (Tales of My Landlord, First Series) (1816)
- The Tale of Old Mortality (Tales of My Landlord, First Series) (1816)
- Rob Roy (1817)
- The Heart of Midlothian (Tales of My Landlord, Second Series) (1818)
- The Bride of Lammermoor (Tales of My Landlord, Third Series) (1819)
- A Legend of Montrose (Tales of My Landlord, Third Series) (1819)
- Ivanhoe (1819)
- The Monastery (1820)
- The Abbot (1820)
- Kenilworth (1821)
- The Pirate (1821)
- The Fortunes of Nigel (1822)
- Peveril of the Peak (1823)
- Quentin Durward (1823)
- Saint Ronan's Well (1823)
- Redgauntlet (1824)
- The Betrothed (Tales of the Crusaders) (1825)
- The Talisman (Tales of the Crusaders) (1825)
- Woodstock (1826)
- Chronicles of the Canongate, First Series (1827)
- The Fair Maid of Perth (Chronicles of the Canongate, Second Series) (1828)

- Anne of Geierstein (1829)
- Count Robert of Paris (Tales of My Landlord, Fourth Series) (1831)
- Castle Dangerous (Tales of My Landlord, Fourth Series) (1831)

Turli tuman yonalishda;

- Paul's Letters to His Kinsfolk (1816)
- Letters of Malachi Malagrowth (1826)
- The Life of Napoleon Buonaparte (1827-8)
- Tales of a Grandfather (1828-31)
- Letters on Demonology and Witchcraft (1830)

Xo'sh tarixiy roman o'zi qanday janr? Ushbu savolga Britanika ensiklopediyasi quyidagicha javob va izoh beriladi:

Historical novel, a novel that has as its setting a period of history and that attempts to convey the spirit, manners, and social conditions of a past age with realistic detail and fidelity (which is in some cases only apparent fidelity) to historical fact. The work may deal with actual historical personages, as does Robert Graves's I, Claudius (1934), or it may contain a mixture of fictional and historical characters. It may focus on a single historic event, as does Franz Werfel's Forty Days of Musa Dagh (1934), which dramatizes the defense of an Armenian stronghold. More often it attempts to portray a broader view of a past society in which great events are reflected by their impact on the private lives of fictional individuals. Since the appearance of the first historical novel, Sir Walter Scott's Waverley (1814), this type of fiction has remained popular. Though some historical novels, such as Leo Tolstoy's War and Peace (1865-69), are of the highest artistic quality, many of them are written to mediocre standards. One type of historical novel is the purely escapist costume romance, which, making no pretense to historicity, uses a setting in the past to lend credence to improbable characters and adventures.

Ushbu ta'rifga ko'ra tarixiy romanlar yaratilishida vujudga keladigan sharoit, holat va boshqa roman yaratish qirralariga to'htalib utilgan. Roman yozuvchi bir qator yozuvchilarni ijod qilish yonalishlarini sanab o'tilganva ularning individual mahorat sohibi ekanliklari aytilgan. Ularning fikriga ko'ra romanchilar orasida Janob Valter Skotning 1814 yilda yozilgan "Waverly" birinchi tarixiy asar sifatida mashhur tarixiy romani bolib qoladi. Tog'ri Lev Tolstoyning "Urush va tinchlik" asari kabi asarlar juda yuqori yozuvchilik saviyasida yozilgan, ammo ularning ko'pchiligi o'rtamiyona standartlar darajasidadir. Yana bir tur tarixiy asarlar romanchilik yo'nalishiga javob bermaydi, ular tarihdan ishonib bolmaydigan voqea va sarguzashtlarni asos qilib foydalanishadi.

II. 2. SKOT ASARLARIDA VATANPARVARLIK MOTIVLARINING AKS ETTIRILISHI.

Vatanparvarlik xaqida soʻz borar ekan albatta koʻplab adabiy asarlarda ushbu motivni uchratishimish mumkin. Vatanparvarlik, ona vatanni sevish badiiy adabiyotda turli koʻrinishlarda oʻz ifodasini topadi. Tinchlik paytida vatanni sevish – uni ardoqlash obod oʻlkaga aylantirish, yegaralarni mustahkamlash, xalq farovonchiligi uchun kurashish gʻoyalarida oʻz fidasini topadi. Urush boʻlgan vaqtlarda esa – dushmanga qarshi kurvshish, vatan ozodligi uchun har narsaga tayyor turish kabi tushunchalar vatan ishqini aks ettiradi. Ayrim asarlarda bevosita vatanga muhabbat degan soʻzlar ishlatilmaydi lekin ularda oʻsha muhabbat shunday kuchli sezildiki, buni payqab olish qiyin emas. Misol uchun byuk bobokalonlarimizdan boʻlmish Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarini mutoala qilar ekanmiz oʻsha muhabbat, chuqur ehtiromni kitobning boshidan oxirigacha his qilishimiz mumkin. Yoki boʻlmasam ingliz adabiyotining yorqin namayandalaridan biri boʻlmish Jonatan Sviftning “Gulliverning sahatlari” asrida ham vatanga boʻlgan muhabbatni tanqid orqali koʻrishimiz mumkin. Aynan shunday fikrlarni Amerika romantizmining buyuk siymolaridan biri boʻlmish Fenimor Kuper asarlarida ham koʻrishimiz mumkin.

Oʻzi barcha Maʼrifatchilar va Romantik adabiyot vakillarining asarlari vatanparlik ruhi bilan yoʻgʻrilgan boʻladi.

Valter Skotning vatanparvarligi xaqida gap borar ekan avvalom bor uning “Vatanparvarlik” (Patriotism) nomli quyidagi sheʼriy misralari yodimizga tushadi:

Patriotism

*Breathes there the man with soul so dead,
Who never to himself hath said,
'This is my own, my native land!'
Whose heart hath ne'er within him burn'd
As home his footsteps he hath turn'd
From wandering on a foreign strand?
If such there breathe, go, mark him well;
For him no Minstrel raptures swell;
High though his titles, proud his name,
Boundless his wealth as wish can claim;
Despite those titles, power, and pelf,
The wretch, concentr'd all in self,
Living, shall forfeit fair renown,
And, doubly dying, shall go down
To the vile dust from whence he sprung,
Unwept, unhonour'd, and unsung.*

“Bu oʻzinning ona vatanim!”

Deb oʻziga ayta olmagan odam,

Qalbi oʻlgan oʻzi bemajol.

Chet ellardan charchasa,

Uyga qarab yoʻl olsa,

Yurak koʻksida yonmasa,

Uni yaxshi tanib oling;

Unga kuylar kuylamang;

Mansabi baland boʻlsin ismi ulugʻvor,

Boyligi boʻlsin uning bisyordan bisyor;

Qaramay mansab va qudrat, boylikka

Bir kuni baxtsizlik tushib boshiga,

Ulugʻ nomi uning qora boʻladi,

Hayot undan albatta qasos oladi,

Oʻlim azobin u ikki bor koʻrar,

Va qaro tuproqqa qorishib ketar,

Birov unga yigʻlamas, kuylamas, kuymas.

Mazkur sheʼrdan ham xulosa chiqarishimiz mumkinki Skot oʻz vatani Shotlandiyani haddan ortiq yaxshi koʻrgan va oʻz vatanini sevmagan insonlarga nisbatan nafrati cheksiz boʻlgan. Bu kabi

munosabatni ko'plab Shotlandiyalik yozuvchi va shoirlarning asarlarida ko'rishimiz mumkin. Misol uchun Robert Berns she'riyati ham vatanparvarlik ruxida yozilgan. Unga birgina "Qalbim tog'lardadir" (My heart's in the Highlands) asarining o'zi shoirning vataniga nisbatan muhabbati cheksiz va hadsiz ekanini ko'rsatib turibdi.

Bunday munosabatning sababi va kelib chiqishi nimada ekan? Bizning o'ylashimizcha Shotlandiya Angliya bilan uzoq va qonli urshlar olib borgani, Angliya istibdodiga juda uzoq yillar qarshi turgani, va ana shu janggu jadallarda ko'plab farzandlarini qurbon berganida. Vatani sevman odam hech qachon vatan uchun jonini qurbon qilmaydi.

Valter Skot jonajon Shotlandiyasining ana shunday o'g'loni edi. U qadim o'tmishda mustaqillik uchun, erk uchun qurbon bo'lgan insonlarning nomlarini abadiylashtirish, o'zidan oldin sodir bo'lgan tarixiy voqea xodisalarni o'zidan keyingi avlodlarga o'git sifatida qoldirishga bo'lga sa'y – harakatlarini asarlarida yaqqol ko'rishimiz mumkin.

1814 yili Skot "Veyverli" deb atalmish dastabki romanini chop etdi. Mazkur asar yuqorida aytib o'tganimizdek Shotlandiya tarixiga oid tarixiy voqea – xodisalarni yoritishga, mazkur voqea – xodisalarga kelajak nuqtai – nazar bilan baho berishga qaratilgan dastlabki harakatlardan biri edi.

1818 yili baronlik unvonini qabul qildi va oilasi davrasida yangi patriarxal klanning otasi ga o'xshab qolgandi.

Skot nima ish qilsa ham yurakdan qilar, o'sha ishga jiddiy e'tibor berar va juda qattiq ishlardi. U shunday deydi "...yoshim ulg'ayib qolganda, yo shligimdag bekorga o'tkazib yuborgan bilim olish imkoniyatlarimni juda katta afsus bilan yodga olaman. Adabiy faoliyatimning har bir qismida bilsizligim menga azob bergan va to'sqinlik qilgan."

Skot asarlarini nashr qiladigan nashr Ediburglik kitobfurush Djon Balentin edi. Skot unning korxonasida ulushga ega bo'lmagan aktsiyador edi. Mazkur firma 1826 yili kutilmaganda bankrot bo'ldi va ellik besh yoshli Skot nafaqat mablag'siz ustiga ustak 130000 funt qarz ham bo'lib qoldi. Firma kreditorlari uni deb aziyat chekmasliklari uchun u hayotining qolgan qismini o'sha ulkan qarzni mardonavor to'lashdek mashaqqatli ishga ga baxshida qildi.

Qarzdorligini fahmlagan birinchi kuniyoq astoydil bel bog'lagan Skot to'rt yil ichida qarshning yarmidan ko'pini ya'ni 70000 funtni to'lashga muvaffaq o'ldi. Uning o'sha davrda yozilgan asarari oldingi shuxratiga mos kelmasdi sifat jihatidan. Boisi, u ko'proq yozish uchun shoshilar va asarlarni puxta rejalashtirishga ulgurmasdi. Lekin uning sog'ligi yomonlashdi va endi jismonan kuchsizlanib qolshag adib avvvligidaqa ishlay olmay qoldi. Xuddi yoshligidagidek uni havo almashtirish uchun Italiyaga jo'natishdi, lekin endi kech bo'lgandi. Italiyaga yetib bormay turib ortiga qaytishiga to'g'ri keldi va Abbatsfordga yetib kelishi bilan u vafot etdi.

Skot ijodiy faoliyatini davrlashtirar ekanmiz, uning romanlarini

To'rt guruhga ajratishimiz mumkin:

Birinchi gurux asarlar Shotlandiya tarixiga oid romanlardir. Ular sirasiga: "Veyverli"(1814), "Gay Menering, yoki astrolog" (1815), "Antikvariat" (1816), "Qora qo'qil" (1816), "O'tmishda qanday o'lishgan"

(1816), "Rob Roy" (1871), "Midlotianning yuragi" (1818), "Lemmermurning qallig'i" (1819), "Montroz afsonasi" (1819), "Reontlet" (1824), "Pertlik malla soch qiz" (1828) va boshqa asarlari aynana o'tlandiya tarixiy hayoti lavhalarini yoritishga qaratilgan badiiy romnalardir.

Ikkinchi gurux romanlar Angliya tarixidan so'zlaydi: mazkur gurux ichida eng mashxuri va adibga butun jahon mashxurligini olib kelgan asar bu "Ayvengo" dir (1820). Bundan tashqari mazkur mavzuga "Kenilvort" (1821), "Qaroqchi", (1822), "Nayjlning boyliklari" (1822), "Vudstok" (1826) va boshqalar.

Uchinchi gurux romanlarga esa yevropa tarixi voqealariga asoslangan asarlar kiradi. Bular esa quyidagilar: "Kventi Durvard" (1823), "Tumor" (1825), "Parij gertsogi Robert" (1832), "Geyershteynlik Anna" (1829), "Havfli qasr" (1832).

"Avliyo Ronanning qudug'i" (1824) bo'lsa mazkur guruxlarning birortasiga ham kirmaydi va alohida talqin qilinadi. Mazkur asar voqealari Shotlandiya va Angliya orasidagi bir joyda ko'pchilik dam oladigan dam olish maskanlarning birida bo'lib o'tadi. Mazkur asr Skot yashab ijod qilgan davr haqidagi yagona asar bo'lib zamonaviy dunyoga muallifning munosabatini ochib beradi. Mazkur asar o'n to'qqizinchi asr tanqidiy realizmining asoschi romani desak ham noto'g'ri bo'lmaydi. Aytib o'tishimiz joizki mazkur asarlarning barchasi vatanparvarlik ruhi bilan sug'orilgan fikrlar bilan to'la. Ayniqsa Shotlandiya tarixiga oid asarlarida Skot Shotlandlarni bir so'zli qatiyatli odamlar, tabiat manzaralarini esa go'zal va betakror qilib ko'rsatishga intiladi. Mazkur asarlarni o'qir ekan kishi behtiyor o'sha joylarga maftun bo'lib qolasan. Garchi Skot o'zi yashab turgan davrga nisbatan tarixiy bo'lgan voqea xodisalarni

tasvirlasada kitobxon adib bilan birga o'sha tarixiy voqealarnin ishtirokchisiga aylanib ketganini sezmay qoladi.

III BOB. V.SKOTNING ADABIY MEROSI XAQIDA MULOHAZALAR

III.1 V.SKOTNING "AYVENGO" ASARI TAHLILI

Mazkur asar Valter Skot qalamiga mansub romanlar ichida eng mashxuri bo'lib undagi voqea hodisalar Angliyada o'rta asrlarda salb yurishlari davrida sodir bo'ladi. Muallif jamiyatning har bir qatlamidan vakillar olib mazkur asarga olib kiradi va sinfiy ziddiyatlar oxir-oqibat sinfiy kurashga va urushga olib kelishini ko'rsatib beradi.

Muammoning markazida anglo saks yer egaoari bilan Norman baronlari o'rtasidagi nifoqdir, va mazkur ikki turdagi bir sinf vakillari hech ham bir to'xtamga kela olishmaydi. Ularning turli tillarda gaplashgani uchun esa ular orasidagi nifoq yanada kengayib ketadi va o'zaro tushunish yanada qiyinlashadi. Natijada esa oddiy halq azoblanadi va inson tug'ilib o'sgan yerida hech qanday xuquqlara ega emasligi juda ayanchli holat ekanini adib ustalik bilan aytb o'tadi. Ustiga ustak Norman bosqinchilari o'zaro ham kelisha olmaydilar va hokimiyat uchun ayovsiz kurashning keti yo'qday tuyuladi. Shaxzoda Jon o'sha paytda salb yurishi bilan ovora shaxzoda Richardni qirollik xuquqidan mahrum qilmoqchi bo'ladi.

Ikki aka uka obrazi orqali uallif Normanlarning ikki xil kayfiyatdagi odamlarini ko'rsatmoqchi bo'ladi: biri barcha yerlarni o'ziniki qilib olib ingliizlarni butunlay tiz cho'ktirmoqchi bo'lsa, boshqasi anglo-saks yeregalari bilan bilan hamkorlikda hukm surmoqchi va mamlakat ichida tartib va qonun ustivorligini o'rnatmoqchi bo'ladi.

Mazkur guruhlardan ikkinchisi progressiv guruh, chunki bu guruh azolari birgalikda, tinch totuvlikda yashashni va pirovard natijada yagona millat bo'lib ketish g'oyasini ilgari suradi. Anglo saks ritsarliri yetakchisi sifatida biz sakson qabilasiga mansub Ser Sedrikni ko'ramiz. U taxtga sakson qabilasi vakillarini qirol qilib ko'tarib mamlakat mustqilligini qayta tiklashn orzu qiladi. Uning rejasiga muvofiq qirol Ko'ningsberglik Atelsteyn, qirolicha esa nasl-nasabi buyuk Alfredga borib qadaladigan yosh Leydi Rovenana bo'lishi kerak edi.

Lekin uning o'g'li Ayvengolik Uilfred Leydi Rovenani sevib qoladi va otasining rejalarini chippakka chiqaradi. Darg'azab ota o'z frazandini quvib soladi va merosdan mahrum qiladi. Natijada Ayvengo ham salb yurishiga ketadi va u yerda Richard bilan uchrashib, do'stlashib qoladi.

Angliyaga kelganlaridan so'ng esa Richard Anglo-Saks ritsarlari va Robin Gud boshchiligidagi ozod kamonchilar yordamida shaxzoda Jonga qarshi taxt uchun kurash olib boradi va g'alaba qozonadi. Ser sedrik esa saksonlarni yana taxtga chiqarishning loji yo'qligini tushunib yetadi va Normanlarga bosh egishga rozi bo'ladi.

O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki adib xalqni u yoki bu aqidaga ishonib emas balki bor g'aqiqatni to'g'ri tushunib mamlakatdagi barcha oamla, etnik guruhlar va qabillalrning xohish irodasiga javob beradigan siyosat yuritishga chaqiradi.

Asardagi ikki markaziy voqealardan biri Eshbi-de-la-Zuchidagi katta turnir bo'lsa ikkinchisi Ser Rejinald Front-de-Bufning torgilston qasrini zabt etilishidir. Asrn o'qir ekanmiz, mazkur voqealarda ishtirok etadigan odamlarining ajoyib galereyasi ko'z oldimizdan o'tadi; ularni portretlarini chizilish bo'yicha uch guruhga bo'lishimiz mumkin:

Birinchi guruh vakillari Valter Skot tomonidan odatda chiziladigan tarixiy shaxslar portretlaridir. Bularga Sedrik, Atelsteyn, shaxzoda Jon, Yorklik Isak va shu kabilar kiradi. Ularning har biriga o'zlari yashagan davr ruhiyati va ijtimoiy kelib chiqishiga ko'ra psixologik chizgilar berilgan.

Mazkur qaxramonlarning bari real tasvirlagan deb aytishimiz mumkin. Misol uchun Skot tasvirlagan ikki tutqin qaxramon obrazlarini ko'rib o'tsak. Ularning biri Gurt – cho'chqaboqar va Vamba – saroy masxarabozi.

Ayvengo asaridagi asosiy qaxramonlari qo'yidagilar hisoblanadi.

Cedric - Saxon thane; called by the Normans a franklin.(Sakslar shohi: Normanlar tomonidan franklin deb atalgan)

Wilfred of Ivanhoe - Son of Cedric; follower of King Richard.(Sedrikning o'g'li, Qirol Richardning izdoshi)

Rowena - Ward of Cedric; descendant of King Alfred.(Sedrikning himoyasidagi; Qirol Alfredning ajdodi)

Athelstane - Cedric's choice of a husband for Rowena; descendant of noble Saxon line.(Sedrikning Rowena uchun tanlagan umr yo'ldoshi; ulug' Sakslarning avlodi)

Isaac - Jewish moneylender of York. (Yorklik evrey qarz beruvchi- sudho'r)

Rebecca -Isaac's daughter; skilled in the art of healing. (Isakning qizi; davolash sanati malakasiga ega)

Richard Plantagenet -King Richard of England; called the Lion-Hearted king. He was made captive by the Duke of Austria on his way back to England from a Crusade. (Angliyalik Qirol Richard; Sher yurak degan nom olgan; U G'arbga harbiy yurishdan Angliyaga qaytayotgan paytda Avstria Gertsogi tomonidan asrga olingan)

John Plantagenet -Brother of Richard who occupied throne during King Richard's absence. (Qirol Richardning ukasi; Richard yo'qligi davrida qirollik tahtini egallab olgan shahs)

Waldemar Fitzurse- Adviser to Prince John. (Shahzoda Lonning maslahatchisi)

Maurice de Bracy -Knight attached to Prince John's retinue. (Shahzoda Jonning qarorgohini qo'riqlovchi Ritsar)

Philip Malvoisin -Norman in league with Prince John. (Shahzoda Jon bilan ittifoqdosh bo'lgan Norman)

Albert Malvoisin -Preceptor at Templestowe. (Tempelstovdagi murabbiy)

Front de Boeuf -Norman lord to whom Prince John had given the fief of Ivanhoe. (Shahzoda Jon Aivengoni mol mulkini hadya etgan Norman lordi)

Prior Aymer of Jorvaulx -Cisterian monk of the Abbey of Jorvaulx. (Yorval Abbatidagi Sisteria ro'honiysi)

Brian de Bois-Guilbert -Knight of the Order of Knights Templar recently returned from Crusades. (Yaqindagina G'rbga bo'lgan harbiy yurishdan qaytgan Templar ritsarlarini bosh ritsari)

Lucas Beaumanoir - Grand Master of the Knights Templar. (Templar ritsarlarining bosh qo'mondoni)

Locksley (Robin Hood)- Leader of the band of forest outlaws. (bo'y-sinmaydigan o'rmon qaroqchilarini boshlig'i)

Friar Tuck (Clerk of Copmanhurst)- Hedge Priest of the outlaw band. (Qoidaga bo'ysinmaydigan qishloq ro'honiysi)

Allan-a-Dale -Minstrel member of outlaws. (Qoidaga bo'ysinmay-diganlarning shoirtabiat a'zosi)

Ulrica (Urfried) - Crone in the castle of Torquilstone; daughter of Torquil Wolfgang, friend of Cedric's father. (Torkilstoun qasridagi qariya; Torkil Volfgangerning qizi, Torkil Volfganger Sedrikning otasini do'sti)

Wamba- Jester bondsman of Cedric. (Sedrikning masharboz quli)

Gurth -Swineherd for Cedric.(Sedrikning chochqaboqari)

Edith -Athelstane's mother. (Aselsteynning onasi)

Elgitha -Rowena's maid. (Rovenaning hizmatkori)

Nathan Ben Israel - Hebrew Rabbi, adviser to Isaac. (Isakning maslaahatchisi)

Oswald- Cedric's cupbearer. (Sedrikning hizmatkori)

Higg, Son of Snell -Peasant witness at Rebecca's trial. (Rebekkaning hoinligiga guvoh bo'lgan dehqon)

Conrade de Mont-Fitchet -Preceptor of Templestowe. (Tempelstovdagi murabbiy)

Romandagi yana bir sodiqlik epizodlaridan biri cho'chqaboqar o'zini Sedrik ekspluatatsiya qilayotganini tushunib yetadi va Sedrikni yomon ko'rib unga qarshi dushmanona kayfiyatda yuradi.

Lekin zarur bo'lgan mahalda feodal etikalarga sodiq qolgan holda xo'jayiniga sidqidildan xizmat qiladi va uning tarafini olib urushga kirada. Oxir-oqibat u qilgan xizmatlari evaziga ozodlikka chiqadi va bu voqeani ulkan xursandchilik bilan qarshi oladi. Lekin tili o'tkir va aqlli vambaga ozodlik taklif qilinganda u qul sifatida qolishni afzal ko'radi.²

Qulni ozod qilish hatti-harakati bu feodal aloqalarni ideallashtirish harakati emas; mazkur holat muallifning qaxramon psixologik dunyosiga chuqur kirib borishidir. Gurt dehqon, mehnatkash va bunday odamlar hamisha ham o'zlarining shaxsiy yerlarida ishlab daromad olishga intilishadi.

Vamba bulsa aksincha, u xizmatkor – bir qator yengilliklarga ega xizmatkor, lekin baribir ham xizmatkor. Bundaylar o'zi mehnat qilib non topib yeya olishmaydi va aftidan uning xizmatkorligi meros bo'lib qolgan aftidan. Otasining ismi Witless (aklsiz) bo'lganiga qaraganda shunday xulosaga kelish qiyin emas. Lekin asarda bu xaqda og'iz ochilmaydi. Vambaning psixologiyasi uning xizmatkorlik holatidan kelib chiqib shakllanadi va agar u ozodlikni qabul qilgan taqtirda ham hech narsa qo'lga kiritmagan bulardi, chunki u yerga ishlov berishga yaramaydi va qo'lida biror xunari yo'q.

Ikkinchi guruh qaxramonlar romantik xarakterda tasvirlangan obrazlardir. Bular sirasiga Jaxldor Templar, Ser Brayn de Boysgilbert, Rebekka, jodugar Ulrikalar kiradi. Ser Braynning guzal Rebekkaga bo'lgan otash (ortiqcha) muhabbati uni kur qilib kuyadi va uning ayrim jihatlari o'quvchida hurmat va xavas xislarini uyg'otsada, uz muhabbatiga yetish uchun u razil maxluqqa aylanadi. Va Skotning ko'pchilik asarlarida bo'lgani kab eng kam qiziqish uyg'otadigan bosh qaxramonlar – Ayvengo va Leydi Rovenalardir.

Uchinchi guruh qaxramonlari xalq og'zaki ijodi an'analariga ko'ra yaratilgan obrazlardir. Robin Gud, Frayer Tak va boshqa ayrim qaxramonlar ana shu an'analar jumlasidan ekanini aytib o'tirishga xojat yo'q deb o'ylaymiz. Lekin eng qiziqarlisiqirol Richard obrazi ham shular jumlasidan ekanligidir. Biz shuni ishonch bilan ta'kidlashimiz mumkinki Richard kabi qirollar Angliya tarixida umuman bo'lmagan; Valter Skot qirol Richard obrazi orqali xalqning bir necha asrlardan beri azaliy orzusiga aylanib qolgan mavhum tushunchaga modiy qiymat bermoqchi bo'ladi: xalqning xaqiqiy qirol qanday bo'lishi kerakligidagi ideal qirolining portretini chizganday bo'ladi. Shunig uchun ham qirol Richard obrazi roman qaxramonidan ko'ra ko'proq afsona yoinki balladalardan olingan qirolni obrazini ko'proq eslatadi.

Kitob o'ta mohir tasvir qilish qobiliyat bilan yozilgan va tasvirlash qobiliyati bo'yicha Skot xaqli ravishda ko'plab mutaxassislr tomonidan yetakchi o'rinlardan biriga qo'yiladi. Kitobni o'qir ekansan beihtiyor kitobxon o'zingni voqealarga aralashib ketganday his qilasan va o'n ikkinchi asrda hayot aynan ana shu asarda yozilganday bo'lganiga ishonch xosil qilasan.

“Ayvengo” asarida Skot uslubiga xos bo'lgan odamiylik, tarixga sadoqat, romantizm va albatta vatanparvarlik g'oyalari bilan yo'g'rilgan barcha jihatlarni ko'rish mumkin.

² Mazkur qaxramon yratilishiga Shekspirning masxarabozlari katta ta'asir k'ursatiшgan

III.2 V. Skotning asarlaridan foydalanish va tarjima qilish xususida

Valter Skotning asarlarini va ularning tarjimalari materiallaridan (o'zbekcha va ruscha) ingliz tili o'qituvchilari va tarjimonlar tayyorlovchi oliy o'quv yurtlarining ingliz adabiyoti tarixi va tarjima nazariyasi va amaliyoti darslarida unumli foydalanish mumkin.

Adabiyot tarixi fani ob'ekti sifatida ingliz romantizmi davri adabiyoti o'ziga xos ahamiyatga ega. Mazkur davr iafaqat ingliz adabiyotiga balki butun dunyo adabiyoti rivojida katta rol o'ynaydi. Bu davrga kelib Angliya misli ko'rilmagan taraqqiyotni boshidan kechirdi. Iqtisoiy ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida ulkan o'zgarishlar va rivojlanish kuzatildi.

Angliya iqtisodiy, diniy o'zgarishlarni boshidan kechirar ekan va dunyoning yetakchi dengiz kuchlardan biriga ega bo'la boshlar ekan, u madaniy va adabiy jihatdan ham keskin o'zgarishlar ta'siriga tushib qoldi.

Mazkur davr ingliz adabiyotini dars jarayoniga olib kirishda rivojlanishning asosiy tarixiy sabablarini ochib berish, ijtimoiy – siyosiy holatning adabiyotda o'z aksini topishida qanday vazifalar bajarishini ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda avvalom bor tarixiy – siyosiy axvol va odamlarning ijtimoiy hayoti, ilm-fan rivoji, Angliyaning dunyoda tutgan o'rni va halqaro maydonlarda erishgan yutuqlari haqda ma'lumot bergandan so'ng madaniyat va san'at, xususan, adabiyot haqida ma'lumot berishga o'tish maqsadga muvofiq kelgan bo'lardi.

Ma'lumki romantizm davri Ingliz adabiyoti jahon adabiyotiga Berns, Bayron, Shelli, Skot, Koleridj va boshqa ko'plab boshqa ajoyib yozuvchi, shoir va dramaturglarni yetkazib berdi.

Shundan kelib chiqib, mazkur davr adabiyotini uchga bo'lib o'tsa ayni muddao bo'lagn bo'lar edi, Ya'ni

1. Romantizm davri she'riyati,
2. Romantizm davri dramaturgiyasi, va romantizm davri nasriy asarlari
3. Adabiy tanqidchilik.

Mazkur bo'linish Angliya romantizm davri adabiy jarayonlarini to'laroq anglab yetishga yordam beradi.

Romantizm davri ingliz adabiyotini to'la anglab yetish, uning o'tmish va bo'lg'usi adabiy jaryonlar bilan aloqasini tushunish, butun ingliz adabiyotini to'la tushunishga olib keladi.

Valter Skot asarlari va ularning tarjimalari materialini bundan tashqari tarjima nazariyasi va amalyoti fanida she'riy va nasriy tarjimalarni tahlil qilish jarayoniga ham olib kirib samarali foydalanish mumkin.

XULOSA

Evropada romantizm adabiyoti XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshlarida shakllandi. 1789-1794 yillardagi birinchi frantsuz burjua inqilobi yevropada feodalizm asoslariga zarba berib, burjua munosabatlarini maydonga keltirdi.

Feodal tartiblari o'rniga kelgan burjua tartiblari odamlar ongida, fanda, madaniyat va adabiyotda, san'atning barcha sohalarida keskin o'zgarishlarga olib keldi. Eski tartiblarga tarafdor bo'lgan dvoryan va aristokrat guruhleri inqilob natijalaridan norozi bo'lib, o'tmishga yuz o'girdilar. Ularga mansub yozuvchilar O'rta asrni, dinni feodal tartiblarini maqtab asar yozdilar va shu tufayli reaksion romantiklar deb nom oldilar. Xalqning intilishlarini ifodalovchi guruhlar ham inqilob natijalaridan norozi bo'ldilar. Ammo bular reaksion romantiklardan farq qilib, oldinga, kelajakka boqtdilar. Bular ma'rifat, ozodlik, tenglik, birodarlik g'oyalariga sodiq bo'lib qoldilar. Shuning uchun ham bu guruh taraqqiyparvar romantiklar deb nom oladi. Taraqqiyparvar romantiklar mehnat ahlining manfaatlarini himoya qilib chiqdilar, ozodlik uchun olib borilayotgan kurashga xayrixohlik bildirdilar.

Taraqqiyparvar romantizm vakillaridan Angliyada Bayron, Shelli, Valter Skott, Frantsiyada V. Gyugo, Jorj Sand, Pol shada Adam Mitskevich, Yulius Slovatskiy va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Bular oddiy xalqqa ishonch bilan qaradilar. Uning taqdiriga, urf-odatlariga, milliy an'analarga, og'zaki ijodga ijobiy munosabatda bo'ldilar. Taraqqiyparvar romantiklar deyarli barcha janrlarda ijod qildilar. Bu esa ular yozgan asarlarning rang-barang, ta'sirchan bo'lib chiqishini ta'minladi. Obrazlarning boyligi va rang-barangligi, chuqur lirizm, hayotiy voqealar tugindagi murakkabliklar va qarama-qarshiliklarni ko'ra bilishi bilan taraqqiyparvar romantiklar jahon adabiyoti rivojida yangi bosqich yaratdilar.

Valter Skot shubxasiz nafaqat ingliz balki jaxon adabiyoti tarixi rivojlanishida muhim o'rin egallaydigan dilbar yozuvchi, betakror qalam kuchi sohibi. U tarixan murakkab davrda yashab ijod qildi. Irodasining kuliligi sababli yoshligidagi kasallik va bir umrlik oqsoqlikka qaramay butun dunyo tanigan mashxur yozuvchi bo'lib yetishdi. Uning asarlari dunyoning ko'plab tillariga takror va takror tarjima qilindi va hali - hamon kitobxonlarning yangi avlodlari tomonidan suyib o'qilmoqda.

Skot adabiy faoliyatini dastlab shoir sifatida boshladi, va aytb o'tish joizki mazkur sohada ancha yutuqlarni qo'lga kiritdi va halqqa manzur bo'lgan she'rlar yozdi. Lekin unng o'zi ushbu she'rlari bilan qoniqmas va adabiyotning boshqa yo'nalishida ham ijod qilib ko'rmoqschi bo'lib yurardi. Bunga shart-sharoit va sabab tez orada paydo bo'ldi. U ham bo'lsa ingliz adabiyoti she'riyatida yangi yulduz - Jorj Gordon Bayron yulduzining paydo bo'lishi bo'ldi. Bayron she'riyatga shunday shiddat bilan kirib keldiki, natijada boshqa siymolar uning yulduzi sochgan nur ta'sirda shululurga aylanib qolishdi.

Skot vaziyatni to'g'ri baholab she'riyatdan o'zini tortdi va adabiyotda yangi janr - "tarixiy roman" janriga asos soldi. Unung bu soxadagi yutuqlari jaxon adabiyoti rivojiga qo'shgan ulkan hissasi edi.

Tarixiy roman janridagi romanlar tarixda bo'lib o'tgan muayyan bir voqeaga bugunnnig (yozuvchi yashyagan davrning) ko'zi bilan qarashdir. Unga bugunning g'oyasi va nuqtai nazari bilan yuoqish, baho berishdir. Bu ish o'z- o'zidan amalga oshmaydi albatta. Azkur janrda asar yozmoqchi bo'lgan yozuvchi tarixiy voqea xodisani aniq bilishi, u xaqidagi turli qarashlarini o'rganib chiqishi va real tarixiy voqea va insonlarni badiiy to'qimasi maxsuli bo'lmish voqealar va qaxramonlar bilan uyg'unlashtirib asar yoza bilish kerak bo'ladi.

Bugungi kunda istiqlool tufayli xorijiy mamlakatlar bilan bemalol aloqalar o'rnatib, ularning fikrlari o'rganilmoqda.

